

O'QUVCHILAR SHAXSIGA XOS PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARNING TA'LIM JARAYONIDAGI O'RNI

**Eshmuratov Shuxrat Elamonovich, Boymurotova Gulchexra Bobomurotovna,
Haydarova Dilafruz Pardayevna**

Oltinsoy tumani 7-maktab o'qituvchilari

Ajdodlarmiz bola tarbiyasida, eng avvalo, uni mehnatga o'rgatish, kasb-hunarga qiziqtirishga alohida e'tibor berishgan. O'zlari farzandlariga mehnatsevarliklari bilan namuna bo'lganlar. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Krimov ta'kidalaganidek: «Har bir insonning, ayniqsa, endigina hayotga qadam qo'yib kelayotgan yoshlarning ongiga shunday fikrni singdirish kerakki, ular o'rtaga qo'yilgan maqsadlarga erishish o'zlariga bog'liq ekanligini, ya'ni, bu narsa ularning sobitqadam, g'ayrat-shijoatiga, to'la-to'kis fidokorligiga va cheksiz mehnatsevarligiga bog'liq ekanligini anglab yetishlari kerak. Xuddi shu narsa davlatimiz va xalqimizning ravnaq topishining asosiy shartidir».¹

Ta'lim samaradorligini oshirish, o'quvchilarning shaxs xususiyatlari va shaxslararo munosabatlari, irodviy sifatlari, emotsional holatlari va aqliy rivojlanishlari hamda axloqiy tasavvurlari, qobiliyati, kasb-hunarga bo'lgan qiziqishi va moyilliklarini ijobiy yo'lga undash masalalari eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

O'quvchi shaxsi tarbiyasi esa muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayonidir. Turli zamon va makonda ijtimoiy tarbiya mohiyatan turlicha ifodalab kelingan bo'lib, uning mazmuni ijtimoiy maqsadlardan kelib chiqib asoslangan.

O'quvchilarga ta'lim-tarbiya beirshda avvalo ulardagi o'z shaxsiga xos psixologik xususiyatlarni ham hisobga olish eng asosiy vazfalardan biridir. O'quvchilar shaxsiga xos psixologik xususiyatlar deganda esa bir o'quvchining boshqa bir o'quvchidan ajralib turuvchi aloxida bir shaxsiy xususiyatlarini tushunamiz. Bunday shaxsiy xususiyatlarga o'quvchining qiziqishlari, qobiliyatlari, temperamenti kiradi. Bular o'quvchi psixikasi va xarakteriga doir muxim xususiyatlarning shakllanishiga so'zsiz ta'sir ko'rsatadi. O'quvchining bunday aloxida xususiyatlari qanday qilib yuzaga keladi? Bularning yuzaga kelishiga asosan ikkita omil ta'sir ko'rsatadi.

Birinchi omil – o'quvchilarga tarbiya orqali ta'sir ko'rsatishdir. Xar bir o'quvchi boshqa o'quvchilardan tashkil topgan muayyan jamoada yashaydi va doimo shu jamoaning, o'qituvchining va o'ziga yaqin bo'lgan kishilarning aloxida tarbiyaviy ta'sirlarini sezib turadi.

Ikkinchi omil – tug'ma xususiyatlar, ya'ni o'quvchi tug'ilganda unda bor bo'lgan nasliy xususiyatdir. Bunday xususiyatlar xam o'quvchi shaxsining yuzaga kelishiga ta'sir etmay qolmaydi. Nasliy xususiyatlarda biz dastavval bolaning temperamentiga oid xususiyatlariga e'tibor qilamiz. Chunki bolalarga aloxida munosabatda bo'lishda ularning temperament xususiyatlarini xisobga olish g'oyat muximdir. Ana shu ikkala omilni, ya'ni ta'lim-tarbiya ta'siri orqali xosil qilingan

xislatlar bilan tug'ma xislatlarni birga qo'shsak, o'quvchining aloxida xususiyatlari, uning xarakteri yuzaga keladi. E.G'oziev o'quvchi temperamentining o'ziga xos xususiyatlarining o'zgaruvchanligini biologik, jismoniy xamda psixologik jihatdan, ob'ektiv va sub'ektiv tomonlariga e'tibor qaratishni o'zining "Boshlang'ich sinf o'quvchilari psixologiyasi" risolasida e'tirof qilgan.²

Albatta bola shaxsining yuzaga kelishiga ta'sir etuvchi bu ikki omildan eng asosiysi va xal qiluvchisi o'quvchiga ko'rsatiladigan tarbiyaviy ta'sirdir.

Tarbiya xususida taniqli o'zbek pedagogi Abdulla Avloniy shunday deydi: «Al-hosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo falokat, yo saodat – yo falokat masalasidir»³. Ushbu fikrlardan anglaniladiki, shaxs tarbiyasi xussiy ish emas, balki ijtimoiy, milliy ishdir. Zero, har bir xalqning taraqqiy etishi, davlatlarning qudratli bo'lishi avlodlar tarbiyasiga ko'p jihatdan bog'liq.

Ta'lim-tarbiya ishlarida o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olish deganda, mazkur yoshdagi bolalarning talablari, imkoniyatlari, xususiyatlariga mos keladigan pedagogik ish shakllari, usullari va vositalarini qo'llash tushuniladi. Biroq o'quvchi xarakterining shakllanishida nasliy xususiyatlarning va dastavval temperament xususiyatlari ustida to'xtab, bu xususiyatlarning roli xam oz emas. Biz o'quvchi temperamentining xususiyatlari ustida to'xtab, bu xususiyatlarni xisobga olinsa, ta'limiy va tarbiyaviy ishlarda yaxshi natijalarga erishish mumkin ekanini ko'rsatib o'tamiz.

Ta'lim-tarbiyada maktab va oila hamkorligi ta'lim sohasidagi eng dolzarb masalalardan biridir, chunki yoshlarga maktabda berilayotgan ta'lim-tarbiya samaradorligi maktabning oila bilan hamkorligi nechog'li yaqinligi, mustahkamligi va tizimli olib borilishiga bog'liqdir. Maktab va oila hamkorligi o'zining ko'p aspektlariga ega bo'lgan jarayondir. Ana shunday aspektlar orasida psixologik aspekt alohida o'rin egallaydi. SHu nuqtai-nazardan maktab va oila bolalarga ta'lim va tarbiya berish yo'lida hamfikrlikda olib borilayotgan ishlarda bolalarning yosh davrlarni qay darajada hisobga olishida va o'z faoliyatida yosh davrlariga mos holda tashkil etish, ayniqsa muhimdir. Har bir yosh davri o'zidan oldingi davr tomonidan tayyorlanib, uning asosida paydo bo'ladi va o'z navbatida, o'zidan keyingisining yuzaga kelish uchun zamin yaratadi. Oila va maktabda bola holati, ta'lim va tarbiya shakllarining o'zgarishi hamda bolaning yangicha faoliyat shakllari va nihoyat, bola organizmi ayrim xususiyatlarining shakllanishi, ya'ni yosh faqat biologik emas, balki ijtimoiy kategoriya hisoblanishi bilan harakterlanadi. SHu ma'noda, yoshlar psixologiyasida faoliyatning yetakchi turi haqidagi tushuncha mavjuddir. Har bir yosh davri uchun faoliyatning har xil turlari harakterlidir, yangi o'yin, o'qish va mehnat kabilarning har bittasiga ehtiyoj bor. Lekin, bola rivojlanishining xilma-xil davrlarida bu ehtiyojlar turlicha bo'ladi va faoliyatning tegishli turlari har xil mazmun kasb etadi. Faoliyatning yetakchi turi maktab o'quvchisining psixikasida, psixologik jarayonlari va xususiyatlarida muhim o'zgarishlarni vujudga keltiradi.

²Э.Ф. Гозиев Бошлангич синф ўқувчилари психологияси. Бухоро. 2001й

³ Авлоний, Абдулла. Туркий гулистон ёшуд ахлоқ. – Тошкент, Ўқитувчи, 1992. -456.

Tarbiya-muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama o'zlashtirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni. Boshqacharoq talqin etilganda, tarbiya yosh avlodni muayyan maqsad yo'lida har tomonlama voyaga yetkazish, unda ijtimoiy ong va xulq-atvorni tarkib toptirishga yo'naltirilgan faoliyat jarayonidir.

Turli zamon va makonda ijtimoiy tarbiya mohiyati turlicha bo'lib, uning mazmuni ijtimoiy maqsadlardan kelib chiqib asoslangan. Tarbiya g'oyasi turlicha ifodalangan bo'lsada, ammo yo'naltiruvchanlik xususiyati hamda ob'ektiga ko'ra yakdillikni ifoda etadi.

Maktab yoshida o'qish faoliyatning yetakchi turi bo'lib qoladi, o'yin o'zining yetakchi ahamiyatini yo'qotadi. Bolaning yoshi ulg'aygan sari bilim olish va ilm o'rganishga intilib boraveradi. Abdulla Avloniy bilim insonni jaholatdan qutqarishning eng samarali vositasi ekanligiga ham urg'u beradi: «Ilm bizni jaholat qorong'usidan qutqarur, madaniyat, ma'rifat dunyosiga chiqarur, yomon fe'llardan, buzuq ishlardan qaytarur, yaxshi xulq, odob sohibi qilur. Bugun hayotimiz, salomatligimiz, saodatimiz, sarvatimiz, maishatimiz, himmatimiz, g'ayratimiz, dunyo va oxiratimiz ilmga bog'liqdur».

Maktab davridagi ta'lim davomida bilim olish faoliyatining mazmuni va xarakteri o'zgaradi. Yil sayin o'quvchining oldiga qo'yilgan talab orta boradi. O'qish faoliyatining faollik, mustaqillik kabi ijobiy tomonlari tobora katta rol o'ynay boshlaydi. Yosh xususiyatlari yoshning eng tipik va xarakterli hamda rivojlanishning umumiy yo'nalishini ko'rsatadigan jihatlari hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Eshmurodov, O., & Eshboyeva, B. (2023). O'SMIRLIK DAVRIDA JINSIY STEROTIPLARNING YOSH XUSUSIYATLARI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 3(2). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8388>
2. Elamanovich, O. E. (2022, October). OILAVIY MUNOSABATLARDAGI NIZOLARNING KELIB CHIQISH SABABLARI. In Archive of Conferences (pp. 1-7).
3. Elomonovich, E. O. (2022). OILA PSIXOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI, OILAVIY MUNOSABATLAR PSIXOLOGIYASI. Gospodarka i Innowacje., 20, 49-51.
4. Eshmuradov Olmosbek Elamanovich (2021). OILA BARQARORLIGINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1 (4), 1318-1323.
5. М. А. Тилакова, & О. Э. Эшмурадов (2021). КРЕАТИВ КОБИЛИЯТЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МЕХАНИЗМЛАРИ. Scientific progress, 1 (6), 143-149.
6. Eshmurodov, O. (2023). SOG'LOM PSIXOLOGIK MUHIT OILA BARQARORLIGINING OMILI SIFATIDA . Журнал Педагогика и психологии

в современном образовании, (I). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9088>

7. Eshmurodov, O. (2023). ҚИЗЛАРНИ ОИЛАВИЙ ҲАЁТГА ТАЙЁРЛАШНИНГ ИЖТИМОЙ ПСИХОЛОГИК ЖИХАТЛАРИ. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, (I). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9087>

8. Eshmurodov O. E. SOCIAL-PSYCHOLOGICAL FACTORS OF MAINTAINING FAMILY-MARRIAGE RELATIONS //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – Т. 10. – №. 12. – С. 803-807.

9. Эшмурадов О. Э. ОИЛАВИЙ МУНОСАБАТЛАРДА ШАХС МОСЛАШУВЧАНЛИГИ ХУСУСИЯТИНИНГ ОИЛА МУСТАҲКАМЛИГИГА ТАЪСИРИ: DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.21.57.012> Эшмурадов Олмосбек Эламонович, Термиз давлат университетининг Педагогика институти Психология кафедраси катта ўқитувчиси //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2021. – №. 1-Махсус сон. – С. 377-380.

10. Eshmurodov, Olmosbek. "ОИЛА МУСТАҲКАМЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАРИ." *Scienceweb academic papers collection* (2022).

11. Эшмурадов О. Э. Оиланинг маънавий-ахлоқий хусусиятлари ва оила мустаҳкамлигини таъминлаш имкониятлари //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 5. – С. 1082-1085.

12. Эшмурадов, О. Э. "Оилавий муҳит ва оилавий муносабатлар психологиянинг ўрганиш предмети сифатида." *ЎзМУ хабарлари* " Мирзо Улугбек номидаги Ўзбекистон миллий университети илмий журнали (2019): 162-164.

13. Eshmurodov O. ОИЛА МУСТАҲКАМЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАРИ //Scienceweb academic papers collection. – 2022

